

Mutaxassislik tanlashda xalqaro yondashuv

"Gidromelioratsiya" fakulteti "Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'lif yo'nalishi 406-guruh talabalar, guruh murabbiyi B.Matyakubov boshchiligidagi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan Toshkent Intercontenental konferensiylar zalida tashkil qilingan "Ta'lif va mutaxassislik" mavzusidagi xalqaro ko'rgazmaga tashrif qilindi.

Ko'rgazma asosan ta'lif va bandlik yo'nalishlari bo'yicha tashkil etilib, unda mahalliy oliy ta'lif muassasalari hamda rivojlangan davlatlardagi nufuzli oliy o'quv yurtlari va ularning O'zbekistondagi filiallari, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lif muassasalari, xorijda ta'lif olishga ko'maklashuvchi tashkilotlar, nodavlat ta'lif muassasalari hamda o'quv kurslari mutaxassislari o'zlarining tashkiloti bo'yicha qisqacha ma'lumot berishdi.

Jumladan, talabalar Qozog'iston Respublikasidagi Nazarbaev Universiteti (Graduate school of business in Nazarbaev University), A.N.Tupolev nomidagi [Kazan miliy texnika universiteti](#), Rossiya texnologiya universiteti, Istanbul Aydin Universiteti, Mugla Sitki Kochman Universiteti (Turkiya) va boshqa bir qator universitet hamda institutlarda magistraturaga qabul qilish tartibi bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lishdi.

Bu ko'rgazma bakalavr bitiruvchi talabalar uchun kelgusida xalqaro magistratura mutaxassisligi bo'yicha kasb tanlashlarida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.



Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov